

VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

2023- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasi 2 767,7 mln. AQSh dollarini va o'zgarish sur'ati 107,7 %ni, jumladan 941,7 mln. AQSh dollarini – eksport operatsiyalari yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 93,5 %ni, 1 826,0 mln. AQSh dollarini – import operatsiyalari yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 116,7 %ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)

| | yanvar-iyun | | 2022- yil yanvar-iyunga nisbatan % hisobida |
|-------------------------------|----------------|----------------|--|
| | 2022- yil | 2023- yil | |
| Tashqi savdo aylanmasi | 2 571,1 | 2 767,7 | 107,7 |

shu jumladan:

| | | | |
|----------------|---------|---------|-------|
| MDH davlatlari | 1 191,8 | 1 263,0 | 106,0 |
|----------------|---------|---------|-------|

| | | | |
|------------------|---------|---------|-------|
| boshqa davlatlar | 1 379,3 | 1 504,7 | 109,1 |
|------------------|---------|---------|-------|

| | | | |
|----------------|----------------|--------------|-------------|
| Eksport | 1 007,7 | 941,7 | 93,5 |
|----------------|----------------|--------------|-------------|

shu jumladan:

| | | | |
|----------------|-------|-------|-------|
| MDH davlatlari | 359,2 | 382,4 | 106,5 |
|----------------|-------|-------|-------|

| | | | |
|------------------|-------|-------|------|
| boshqa davlatlar | 647,5 | 559,3 | 86,4 |
|------------------|-------|-------|------|

| | | | |
|---------------|----------------|----------------|--------------|
| Import | 1 564,4 | 1 826,0 | 116,7 |
|---------------|----------------|----------------|--------------|


shu jumladan:

| | | | |
|----------------|-------|-------|-------|
| MDH davlatlari | 832,6 | 880,6 | 105,8 |
|----------------|-------|-------|-------|


| | | | |
|------------------|-------|-------|-------|
| boshqa davlatlar | 731,8 | 945,4 | 129,2 |
|------------------|-------|-------|-------|

Viloyat tashqi savdo aylanmasida
MDH va boshqa davlatlarning ulushi, %da

2023- yil yanvar-iyun



2022- yil yanvar-iyun




**2023- yil yanvar-iyun oylarida
viloyat eksport-importi tarkibi**

| | <i>Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i> | | <i>2022- yil yanvar-iyunga nisbatan % hisobida</i> |
|--|--|----------------------------------|--|
| | <i>2022- yil yanvar-iyun</i> | <i>2023- yil yanvar-iyun</i> | |
| Eksport tarkibi | 100,0 | 100,0 | 93,5 |
| paxta tolasi | 0,1 | 0,1 | 159,4 |
| oziq-ovqat mahsulotlari | 9,7 | 11,6 | 111,5 |
| kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar | 4,6 | 5,4 | 109,5 |
| energiya manbalari va neft mahsulotlari | 0,2 | 0,4 | 2,4 m. |
| qora va rangli metallar | 57,0 | 53,1 | 87,2 |
| mashina va uskunalar | 2,9 | 2,7 | 89,2 |
| xizmatlar | 0,3 | 0,3 | 80,8 |
| boshqalar | 25,2 | 26,4 | 98,0 |
| Import tarkibi | 100,0 | 100,0 | 116,7 |
| oziq-ovqat mahsulotlari | 22,5 | 19,0 | 98,3 |
| kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar | 12,9 | 11,3 | 102,4 |
| energiya manbalari va neft mahsulotlari | 3,3 | 8,3 | 3,0 m. |
| qora va rangli metallar | 13,6 | 10,0 | 85,5 |
| mashina va uskunalar | 23,1 | 31,0 | 157,2 |
| xizmatlar | 0,3 | 0,1 | 53,5 |
| boshqalar | 24,3 | 20,3 | 97,2 |

Eksport tarkibida tovarlar 99,7 % ulushiga ega bo‘lib, bular asosan qora va rangli metallar (53,1 %), boshqa turdagi tovarlar (26,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari (11,6 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (5,4 %), mashina va uskunalar (2,7 %) shuningdek, xizmatlar (0,3 %) guruhlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln. AQSh dollari)




Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (29,1%), oziq-ovqat mahsulotlari (20,7%), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (10,4%) hamda boshqa mahsulotlar (21,5%) guruhlariga to'g'ri keldi.


Tovar va xizmatlar importi tarkibi

(mln. AQSh dollari)

2022- yil
yanvar-iyun



2023- yil
yanvar-iyun



- Oziq-ovqat mahsulotlari
- Kimyo mahsulotlari va buyumlari
- Energiya manbalari va neft mahsulotlari
- Qora va rangli metallar

- Mashina va asbob-uskunalar
- Xizmatlar
- Boshqalar


**2023- yil yanvar-iyun oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida
katta ulushga ega bo'lgan davlatlar bilan tovar aylanmasi**

| | <i>Viloyat tovar aylanmasida ulushi, % hisobida</i> | <i>2022- yil yanvar-iyungacha nisbatan % hisobida</i> |
|-----------------------|---|---|
| Xitoy | 23,1 | 122,9 |
| Rossiya Federatsiyasi | 20,7 | 96,4 |
| Qozog'iston | 17,1 | 107,5 |
| Turkiya | 9,1 | 59,5 |
| Braziliya | 4,0 | 107,6 |
| Singapur | 4,0 | 7,3 m. |
| Germaniya | 2,4 | 2,3 m. |
| Italiya | 2,0 | 187,4 |
| Qirg'iz Respublikasi | 2,0 | 165,5 |
| Tojikiston | 1,8 | 115,8 |
| Belarus | 1,8 | 2,2 m. |
| AQSH | 1,0 | 6,8 m. |
| Vetnam | 0,8 | 14,7 m. |
| Koreya Respublikasi | 0,8 | 101,7 |
| Litva | 0,6 | 2,1 m. |
| Belgiya | 0,6 | 6,0 m. |
| Afg'oniston | 0,5 | 52,4 |
| Niderlandlar | 0,4 | 95,4 |


Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘izton, Turkiya, Braziliya, Singapur va Germaniya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 79,4 %ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog‘izton, Turkiya, Braziliya, Singapur va Germaniya davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar, energiya manbalari va neft mahsulotlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

2023- yil yanvar-iyun oylarida MDH va boshqa xorij davlatlari bilan amalga oshirilgan tashqi savdo tarkibi %da

Eksport




Import



Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 45,6 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 6,0 %ga ko‘paydi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning yanvar-iyun oylarida 54,4 %ni tashkil qildi (2022- yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 53,6 %ga teng bo‘lgan).

**Toshkent viloyatining kichik biznes korxonalarining
tashqi savdo aylanmasi**
(mln. AQSh dollari)



So‘nggi yillarda Hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida viloyat tashqi savdo aylanmasida kichik biznes korxonalarining ulushi oshib bormoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2023- yil yanvar-iyun oylarida jami 135,1 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 73,2 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati – 153,9 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida 104,2 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 44,0 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan qiymatda 52,8 %ga ko'paygan.

Shuningdek, 19,4 ming tonna meva va rezavorlar 21,0 mln. AQSh dollarga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 146,7 %ni tashkil etdi.

**2023- yil yanvar-iyun,
mln. AQSh dollari**



Meva va
rezavorlar
19,4 ming
tonna
21,0 mln.
AQSH dollari



Uzum
5,0 ming
tonna
5,3 mln.
AQSH dollari



Yeryon-
g'oqlar
0,1 ming
tonna
0,3 mln.
AQSH dollari



Sabzavotlar
104,2 ming
tonna
44,0 mln.
AQSH dollari

Shuni aytib o'tish joizki, viloyatning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida, meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalar eksport qilinmoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-iyun oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 123,6 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, umumiy eksportdagi ulushi 13,1 %ni tashkil etdi.